



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA TA'LIM VAZIRLIGI HAY'ATI MAJLISINING BAYONI

2021-yil 25 - avgust

6 -son

Toshkent sh.

**Raislik qiluvchi:** A.V.Shin – Maktabgacha ta'lif vaziri

**Ishtirok etdilar:** Hay'at a'zolari, vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari va mas'ul xodimlar (*ro'yxat bo'yicha*).

### KUN TARTIBI:

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rindbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to'g'risida" 2021-yil 22-iyulda PQ-5189-son qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida**

(Shin, Onorboyev, Begimkulov, Muslitdinov, Boboyev, Berdiyeva, ... Shin)

Mamlakatimiz taraqqiyotining zamonaviy bosqichida yangi O'zbekistonni barpo etish uchun amalga oshirilayotgan shiddatli va keng ko'lamli islohotlar jarayonida mamlakatimiz oldida turgan ustuvor, strategik va dolzarb vazifalarni tezkor hal qilishda vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rindbosarlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini oshirish, vazifalari va vakolatlarini aniq belgilash, shuningdek, ularning faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishilishining asosiy mezonlari orqali baholashning yangi tizimini joriy etish maqsadida 2021-yil 22-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rindbosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish to'g'risida" PQ-5189-son qarori qabul qilindi.

Mazkur Qaror bilan:

vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rindbosarlarining e'tibori ularga O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining hujatlari bilan hamda o'zlarining birinchi rahbarlari tomonidan

yuklatilgan vazifalarni bajarishda sustkashlikka, sansalorlikka yo'l qo'yib bo'lmasligiga qaratish;

vazir o'rribosarlari o'ziga biriktirilgan tarmoq va sohalardagi faoliyatining samaradorligi va natijadorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti oldida shaxsan javobgar hamda Vazirlar Mahkamasi oldida hisobdorligi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rribosarlarining faoliyatini baholash tizimi joriy etilishi:

- davlat boshqaruvi organlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan xo'jalik birlashmalari (keyingi o'rinnarda — xo'jalik birlashmalari) rahbarlari o'rribosarlarining faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanishi;

- har yili ijro intizomining ahvoli yuzasidan baho berishni nazarda tutgan holda davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rribosarlarining faoliyati ko'rsatkichlari davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalarining kollegial organlari tomonidan ishlab chiqilishi va tasdiqlanishi;

- davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rribosarlarining faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishini baholashning asosiy mezonlari va ko'rsatkichlari statistik va idoraviy hisobotlar hamda tahliliy ma'lumotlar asosida tizimli monitoring qilinishi;

- monitoring natijalari asosida rahbarlar o'rribosarlarining faoliyati tanqidiy tahlil asosida tegishli davlat boshqaruv organlari kollegial organi va xo'jalik birlashmalarining kuzatuv kengashlarida hamda Vazirlar Mahkamasida har chorak yakuni bo'yicha muhokama qilib borilishi;

- baholash mezonlari va ko'rsatkichlari asosida har bir rahbar o'rribosari faoliyatiga baho berish orqali ularni rag'batlantirish yoki intizomiy javobgarlikka tortish choralari ko'rlishi belgilab qo'yildi.

Shuningdek, davlat boshqaruvining va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rribosarlarining faoliyati samaradorligini baholash tizimini joriy etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rribosarlarining faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlarini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 28-iyuldaggi 467-sod qarori qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasi qarori bilan:

vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rribosarlarining 2021-yil II yarim yilligi uchun faoliyati ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, monitoring qilish va samaradorligini baholashning tashkiliy sxemasi;

vazirliklar, davlat qo‘mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo‘jalik birlashmalari rahbarlari o‘rinbosarlarining faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-iyuldagagi PQ-5189-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-iyuldagagi 467-son qarori talablariga muvofiq mактабгача та’лим vaziri o‘rinbosarlarining 2021-yil II yarim yilligida faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari ishlab chiqilib, kelishish uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etildi.

Mактабгача та’лим vaziri o‘rinbosarlarining 2021-yil II yarim yilligida faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash va vazir o‘rinbosarlarining shaxsiy mas’uliyatini yanada oshirish maqsadida **vazirlik Hay’ati qaror qiladi**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari B.O.Onorboyev, vazir o‘rinbosarlari U.Sh.Begimkulov va N.X.Muslitdinovning 2021-yil II yarim yilligi uchun faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilganligi inobatga olinsin**.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining birinchi o‘rinbosari B.O.Onorboyev, vazir o‘rinbosarlari U.Sh.Begimkulov va N.X.Muslitdinovning **2021-yil II yarim yilligi uchun faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari** (keyingi o‘rinlarda – vazir o‘rinbosarlari faoliyati ko‘rsatkichlari) **ilovaga muvofiq tasdiqlansin**.

3. Vazir o‘rinbosarlari (Onorboyev, Begimkulov, Muslitdinov):

o‘zlariga biriktirilgan tarkibiy bo‘linmalar faoliyatining samaradorligi va natijadorligi yuzasidan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida shaxsan javobgar hamda Vazirlar Mahkamasi oldida hisobdor ekanliklariga e’tibor qaratsin**;

o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha vazirlik markaziy apparatining tegishli tarkibiy bo‘linmalari bilan birgalikda 2021-yil III chorak yakuni bo‘yicha **2021-yil 1-oktyabrga qadar**, 2021-yil IV chorak yakuni bo‘yicha **2022-yil 1-yanvarga qadar** vazir o‘rinbosarlari faoliyati ko‘rsatkichlari natijalarini vazirlik Hay’ati majlisida muhokama qilish maqsadida **hisobot va taqdimot materiallarini puxta va sifatli tayyorlanishini ta’milas**;

**2021-yil 10-oktyabr va 2022-yil 10-yanvar kunlari** Bosh vazir o‘rinbosari huzurida vazir o‘rinbosarlari faoliyati ko‘rsatkichlari natijalari to‘g‘risida o‘tkaziladigan muhokama yig‘ilishlariga puxta tayorgarlik ko‘rsin.

4. Nazorat-tahlil boshqarmasi (L.Berdiev) **har chorak yakunida** vazir o‘rinbosarlari faoliyati ko‘rsatkichlari natijalarini ko‘rib chiqish va baho berish bo‘yicha Hay’at yig‘ilishlarini tashkil etish chorasini ko‘rsin.

Bunda vazir o‘rinbosarlari faoliyati ko‘rsatkichlari natijalari to‘g‘risida tayyorlangan **hisobot va taqdimot materiallarini** Hay’at majlisi o‘tkazilishidan kamida **ikki kun oldin maktabgacha ta’lim vaziriga taqdim etsin.**

5. Kadrlar boshqarmasi (F.Boboyev) Hay’at majlisi muhokamalari yakuniga ko‘ra har bir vazir o‘rinbosariga berilgan baho natijalari bo‘yicha umumlashtirilgan ma’lumotlar boshqa materiallarni 2021-yil III chorak yakuni bo‘yicha **2021-yil 5-oktyabrga qadar**, 2021-yil IV chorak yakuni bo‘yicha **2022-yil 5-yanvarga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’milas.**

6. Axborot xizmati (M.Asqarxo‘jayeva) vazir o‘rinbosarlari faoliyati ko‘rsatkichlari ijrosi bo‘yicha **har oy ommaviy axborot vositalari, shu jumladan tele va radio kanallar orqali axborot berilishini ta’milas.**

7. Ushbu qarorning ijrosini samarali tashkil etishga tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha mas’ul va shaxsiy javobgar etib vazirning birinchi o‘rinbosari B.Onorboyev, vazir o‘rinbosarlari U.Begimkulov va N.Muslitdinov belgilansin.

8. Mazkur Hay’at qarori ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Hay’at raisi,**

**Maktabgacha ta’lim vaziri**



**A.V.Shin**

*S. Sh*

*J.*

*N.* 4

Maktabgacha ta'lim vazirligi Hay'at majlisining  
 2021-yil 25-avgustdagি 6-son bayoniga  
 ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining birinchi o'rribbosari B.O. Onorboyev,  
 vazir o'rribbosarlari U.Sh. Begimkulov va N.X. Muslittdinovning 2021-yil II-yarim yilligi uchun faoliyati samaradorligini  
 hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning  
 ASOSIY MEZONLARI**

№	Asosiy mezonlar	O'Ichov birligi (ko'rsatkich)	shu jumladan:					
			III-chorak		IV-chorak		Yillik	
			reja	%	reja	%	reja	%
<b>1. Maktabgacha ta'lim vazirning birinchi o'rribbosari</b> (maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini, shu jumladan davlat-xususiy sherikchilik asosida oshirishni ta'minlash masalalari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha)								
1.	Hududlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish	dona	505	46,2%	589	53,8%	1094	100 %
2.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash	dona	464	75%	150	25%	614	100%
3.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaqtika chora-tadbirlarini amalga oshirish	nafar	328 716	50%	328 716	50%	657 432	100%
4.	Davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini rivojlanтирish	dona	500 oilaviy 5-DXSH	75%	500 oilaviy 15 DXSH	100%	1000 oilaviy 20 DXSH	100%
5.	"Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralalararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosini ta'minlash	dona	22	100%	41	100%	85	100%

№	Asosiy mezonlar	O'Ichov birligi (ko 'rsatkich)	shu jumladan:					
			III-chorak		IV-chorak		Yillik	
			reja	%	reja	%	reja	%
<b>2. Maktabgacha ta'lism vazirining o'rinnbosari</b> (maktabgacha ta'lism mazmuni, maktabgacha ta'lism tizimida ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari bo'yicha)								
1.	Maktabgacha ta'lism tizimiga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lism va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini o'quv-tarbiya jarayoniga joriy etish maqsadida zamonaviy didaktik materiallar bilan ta'minlangan maktabgacha ta'lism tashkilotlar ulushi	dona	-	-	20149	100%	20149	100%
2.	Ta'lism-tarbiya jarayoniga malakali va kasbiy jixatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni jalb qilish orqali maktabgacha ta'lism tashkilotlarda oliy ma'lumotli kadrlar soni	nafar	40457	31,8%	43676	34%	43676	34%
3.	Maktabgacha ta'lism tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslardan o'tgan pedagog kadrlar soni	nafar	1331	100%	4015	100%	14029	100%
4.	Maktabgacha ta'lism sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hajmi	mln, AQSH dollarri	21,7	100%	11	100%	31,7	100%
5.	"Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosini ta'minlash	dona	38	100%	38	100%	117	100%

№	Asosiy mezonlar	O'Ichov birligi (ko'rsatkich)	shu jumladan:					
			III-chorak		IV-chorak		Yillik	
			reja	%	reja	%	reja	%
<b>3. Maktabgacha ta'lism vazirining o'rribbosari (moliya-iqtisod, maktabgacha ta'lism tizimida qurilish-ta'mirlash, jihozlashtirish va raqamlashtirish masalalari bo'yicha)</b>								
1.	Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlari bino va inshootlarini qurish, ta'mirlash, tiklash, joriy saklash, shuningdek, ularni kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlarini tashkil etish	dona, mlrd sum	541 ta obyekt 286,5	29,8	496 ta obyekt 215,6	22,5	1037 ta obyekt 959,4	100
2.	Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlarining ehtiyojlarini aniqlash va har yili ularni jihozlash (qayta jihozlash)	mlrd sum	9,0	12%	66,1	88%	75,1	100%
3.	O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturlariga kiritilgan maktabgacha ta'lism obyektlarida olib boriladigan qurilish-ta'mirlash ishlarining tizimli monitoringini yuritish	dona, mlrd sum	141 ta obyekt 219,5	29,6	67 ta obyekt 194,5	26,5	208 ta obyekt 742,3	100
4.	Davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlari xarajatlari o'z vaqtida moliyalashtirilishini, ularda buxgalteriya hisobi va hisoboti belgilangan tartibda yuritilishini tashkil etish	mlrd sum	1 531	98,7%	2 054	99,2%	7 293	99,2%
5.	Maktabgacha ta'lism tizimini raqamlashtirish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etish maqsadida Internet tarmog'iga ulangan davlat maktabgacha ta'lism tashkilotlar ulushi	dona	320	5%	340	5%	6200	100%
6.	"Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali topshiriq va vazifalar ijrosini ta'minlash	dona	8	100%	27	100%	50	100%